

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA **CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-oktabr



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 61-222-67-45

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-noyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **4 589** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **75** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **4 514** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi **10 042,7** mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **108,8** % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **305,0** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **92,9** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **9 737,6** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **109,4** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 312,0** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **112,3** %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd so'm	2023- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	10 042,7	108,8
Nukus shahri	2 057,9	113,9
tumanlar:	-	
Amudaryo	813,0	108,2
Beruniy	461,8	107,0
Bo'zatov	117,6	107,3
Qorao'zak	414,3	105,3
Kegeyli	336,5	104,2
Qo'ng'iro't	743,8	106,8
Qonliko'l	346,6	106,3
Mo'ynoq	105,7	104,3
Nukus	276,0	108,9
Taxiatosh	335,3	103,4
Taxtakopir	306,6	107,2
To'rtko'l	1 072,1	108,4
Xo'jayli	869,7	107,8
Chimboy	491,8	110,2
Shumanay	201,0	105,0
Ellikqal'a	571,3	109,7

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan respublikaning Chimboy (**110,2** %), Ellikqal'a (**109,7** %) Nukus (**108,9** %), tumanlari va Nukus shahrida (**113,9** %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Ulushi, foizda




Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Nukus shahri 20,5 % bilan 2 057,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Mo'ynoq tumani 1,1 % bilan 105,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd so'm






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **9 737,6** mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **9,4 %** ga oshdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **97,0 %** ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **92,9 %** ni va **305,0** mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **3,0 %** ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorao'zak (99,8 %), Nukus (99,8 %) va Qonliko'l (100,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 3,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Taxiato'sh (17,1 %), Beruniy (6,0 %), Nukus shahri (3,6 %) va To'rtko'l (3,4 %) tumanlarida kuzatildi.

3,0 %

97,0 %

 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

Nukus shahri	6 027,9	Xo'jayli	6 731,0
Amudaryo	3 809,7	Chimboy	4 240,0
Beruniy	2 236,5	Shumanay	3 454,2
Bo'zatov	5 370,1	Ellikqal'a	3 319,3
Qorao'zak	7 602,1		
Kegeyli	4 487,1		
Qo'ng'iro't	5 452,7		
Qonliko'l	6 418,7		
Mo'ynoq	3 135,7		
Nukus	5 082,1		
Taxiatosh	4 354,9		
Taxtako'pir	7 881,3		
To'rtko'l	4 659,3		


2024- yilning yanvar-oktabr oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 989,9** ming so'mni (2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **107,3** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Taxtako'pir (7 881,3 ming. so'm), Qorao'zak (7 602,1 ming. so'm) va Xo'jayli (6 731,0 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-oktabr), foizda




Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o‘rinlari, turg‘un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd so‘m	2023- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	865,9	131,6
Nukus shahri	108,8	113,9
tumanlar:		
Amudaryo	70,9	127,0
Beruniy	60,8	196,6
Bo‘zatov	24,0	107,2
Qorao‘zak	38,3	134,1
Kegeyli	72,5	104,2
Qo‘ng‘irot	68,3	110,3
Qonliko‘l	26,6	176,1
Mo‘ynoq	17,2	109,2
Nukus	36,0	196,0
Taxiatosh	26,4	122,1
Taxtako‘pir	30,9	126,3
To‘rtko‘l	101,2	189,9
Xo‘jayli	57,7	112,8
Chimboy	70,7	161,0
Shumanay	19,0	111,9
Ellikqal‘a	36,5	112,1


* – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-oktabr)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-oktabr)



Respublika bo'yicha 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 312,0** mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **112,3 %** ni tashkil etdi. Sh jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **865,9** mlrd so'mni (**131,6 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **446,1** mlrd so'mni tashkil etdi (**87,4 %**).

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **865,9** mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**476,2** mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 476,2 mlrd so'm  55,0 %	Non va non mahsulotlari 46,3 mlrd so'm  5,3 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 98,5 mlrd so'm  11,4 %
Tovuq go'shti 40,1 mlrd so'm  4,6%	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar) 22,8 mlrd so'm  2,6 %	Tuxum 38,2 mlrd so'm  4,4 %
Ziravorlar 23,2 mlrd so'm  2,7%	Sut va sut mahsulotlari 40,7 mlrd so'm  4,7%	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 28,6 mlrd so'm  3,3 %
Tuzlamalar 26,7 mlrd so'm  3,1 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 24,6 mlrd so'm  2,8 %	Nooziq-ovqat tovarlar - mlrd so'm - %

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **446,1** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **373,2** mlrd so'm, qo'y va echkilar – **63,2** mlrd so'mni, otlar – **6,7** mlrd so'mni, parrandalar – **3,0** mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 191,6 mlrd so'm  42,9 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 93,4 mlrd so'm  20,9 %	1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 88,2 mlrd so'm  19,8 %
Qo'ylar 39,9 mlrd so'm  8,9 %	Otlar 6,7 mlrd so'm  1,5 %	Echkilar 23,3 mlrd so'm  5,2 %
Kurka, o'rdak, g'oz 2,0 mlrd so'm  0,4 %	Tovuqlar 1,0 mlrd so'm  0,2 %	Quyionlar - mlrd so'm  -%
Qushlar - mlrd so'm  -%		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 111 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 111 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8 568,6	112,0
Nukus shahri	144,7	111,9
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	14,6	109,7
Beruniy	11,2	109,9
Bo'zatov	0,9	108,9
Qorao'zak	8,5	109,1
Kegeyli	3,5	111,1
Qo'ng'iro't	76,8	109,2
Qonliko'l	3,8	110,3
Mo'ynoq	1,4	111,1
Nukus	3,0	111,9
Taxiatosh	7,6	109,4
Taxtakopir	2,1	110,7
To'rtko'l	20,8	109,2
Xo'jayli	18,4	110,0
Chimboy	9,4	112,6
Shumanay	1,6	111,9
Ellikqal'a	7,7	108,7

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **8 568,6** mlrd so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan **112,0** % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **100,0** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 154,2	100,0
Nukus shahri	1 347,3	62,5
tumanlar:		
Amudaryo	27,6	1,3
Beruniy	544,4	25,3
Bo'zatov	1,3	0,1
Qorao'zak	2,6	0,1
Kegeyli	158,6	7,4
Qo'ng'iro't	2,6	0,1
Qonliko'l	11,5	0,5
Mo'ynoq	1,2	0,1
Nukus	0,2	0,0
Taxiatosh	10,9	0,5
Taxtak'o'pir	3,3	0,2
To'rtko'l	17,4	0,8
Xo'jayli	5,6	0,3
Chimboy	6,6	0,3
Shumanay	2,0	0,1
Ellikqal'a	11,0	0,5

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Nukus shahri (**1 347,3** mlrd so'm), Beruniy (**544,4** mlrd so'm) va Kegeyli (**158,6** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so'm)



2024- yilning yanvar-oktabr oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*)


2 154,2 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **102,9 %** ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **722,8** mlrd so'm (o'sish sur'ati – **88,5 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **1 431,4** mlrd so'mni (o'sish sur'ati – **112,1 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Respublika bo‘yicha 2024- yilning yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **4 913,1** mlrd so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **13,7** % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar

**Mikrofirma va kichik
korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **4 176,6** mlrd so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **106,6** % ga to‘g‘ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **85,0** % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- noyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 588 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 582 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Nukus shahrida (126,8 %) va Taxiatoosh tumanida (108,2 %) kuzatildi

	Jami mlrd so'm	2023- yil yanvar- oktabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 913,1	113,7
Nukus shahri	1 767,3	107,1
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	148,7	119,0
Beruniy	152,6	102,5
Bo'zatov	1,5	107,4
Qorao'zak	12,4	102,5
Kegeyli	9,1	103,2
Qo'ng'iro't	45,0	116,2
Qonliko'l	282,7	653,2
Mo'ynoq	340,4	105,7
Nukus	56,5	106,3
Taxiatoosh	424,5	107,1
Taxtako'pir	13,4	111,6
To'rtko'l	386,9	109,1
Xo'jayli	45,9	114,2
Chimboy	216,8	107,0
Shumanay	21,0	108,5
Ellikqal'a	126,6	107,1